

**O'ZBEKISTONDA EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN ERKIN IQTISODIY
ZONALARNI TASHKIL ETISH MASALALARI VA EKSPORT
GEOGRAFIYASINING RIVOJLANISHI**

Nazarov Didar Maxsat o'g'li
Urganch davlat universiteti
Geografiya yo'nalishi 3-bosqich talabasi

**ISSUES OF ESTABLISHING EXPORT-ORIENTED FREE ECONOMIC
ZONES IN UZBEKISTAN AND DEVELOPMENT OF EXPORT
GEOGRAPHY**

Nazarov Didar Maxsat ogli
Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni
3rd year student of Geography

Annotatsiya. Maqolada bugungi kunda dolzarb bo'lib kelayotgan eksport salohiyatini oshirish va eksportga yo'naltirilgan erkin iqtisodiy zonalarini tashkil masalalari bayon qilinadi. Mamlakatimizda eksport ko'rsatkichlarini oshirish yuzasidan muammolarga to'xtalib o'tiladi va geografik xususiyatlari oydinlashtiriladi. Eksortga doir bo'lgan ko'rsatkichlar Sankey va aylana diagramma shakllari ko'rinishida berilib o'tiladi.

Kalit so'zlar: agro erkin iqtisodiy zona, eksport, gografik joylashuv, transport, sankey diagrammasi, strategiyalar

Аннотация. В статье будут рассмотрены актуальные на сегодняшний день вопросы повышения экспортного потенциала и создания экспортно-ориентированных свободных экономических зон. Будут затронуты проблемы повышения экспортных показателей в нашей стране и уточнены географические особенности.

Ключевые слова: агро-свободная экономическая зона, экспорт, географическое положение, транспорт, диаграмма санки, стратегии

Annotation. The article describes the issues of increasing export potential and the establishment of export-oriented Free Economic Zones, which are relevant today. Problems will be touched upon in the country to increase export indicators and the geographical features will be clarified.

Keywords: agro free economic zone, export, geographical location, transport, sankey diagram, strategies


KIRISH. Turli mahsulotlarning jahon bozorida tadbqiq qilinishi O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni chetga sotishda yangi potensial eksport bozorlarini yaxshiroq aniqlash imkonini beradi. Eksport tushunchasining ma'nosi esa xorijiy mijozlarga mahsulot sotish ya'ni davlatda ishlab chiqarilgan mahsulot va tovarlar chetga sotiladi. Buning natijasida mamlakatning iqtisodiyotiga daromatlar kelib tushadi. Jahonning ko'plab mamlakatlarida eksport ko'rsatkichlarini oshirishni maqsad qilib eksportga yo'naltirilgan erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etgan. Albatta ushbu turdagi eksportga yo'naltirilgan EIZlarni O'zbekistonda tashkil etishda bir qancha chora – tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Eksportga yo'naltirilgan EIZlar o'zi nima va ular erkin iqtisodiy zonalarining qanday turi sanaladi? **Eksportga yo'naltirilgan erkin iqtisodiy zonalar** - bu rivojlanayotgan mamlakatlar tarkibidagi eksport yo'naltirilgan ishlab chiqarish mahsulotlari uchun xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etishva ushbu yerda faoliyat yurituvchi shaxslar uchun imtiyozlar va qulayliklar yaratadigan hududdir. Eksportga yo'naltirilgan EIZlar bojxona erkinligini taqdim etuvchi bir nechta ma'muriy vositalardan biridir.

ASOSIY QISM. Eksportga yo'naltirilgan erkin iqtisodiy zonalarining asosiy qismi rivojlangan davlatlar hissasiga to'g'ri keladi. Eksportga yo'naltirilgan EIZlar odatda cheklangan o'lchamda bo'lib, 10 ga dan 300 gektargacha bo'lgan hududni qamrab oladi. . Eksportga yo'naltirilgan EIZlarning tashkil etilishi mamlakatlarning jahon bozoriga chiqishiga imkoniyatini yaratadi. Eksportga yo'naltirilgan zonalar ko'plab

mamlakatlarda davlat eksport ulushining deyarli katta qismini egallashi mumkin. Bunga misol tariqasida Lotin Amerikasida joylashgan Nikaragua – 79%, Panamada – 67%, Osiyo davlatlaridan Bahraynda – 69%, Bangladeshda – 75%, Flippinda – 78%, Afrika davlatlarida esa bu ko'rsatkich mos ravishda Marokashda – 61%, orol davlati hisoblangan Madagaskarda – 80 % ga tengdir.


O'zbekistonda eksport xorijga ko'plab turli-tuman mahsulotlarni eksport qiladi. Ammo pastda ko'rsatilgan aylana diagrammada asosiy eksport qilinadigan tovar va mahsulot turlarining ko'rsatkichlari berilib o'tilgan:



1-rasm. Asosiy mahsulot ko'rsatkichlari

Bundan ko'rinib turibdiki jamiyki eksport salohiyatida eng katta ulush oltin, tabiiy gaz, meva – sabzavotlar va boshqalarga to'g'ri kelmoqda. Geografik jihatdan qaraydigan bo'lsak eng yirik oltin konlari Navoiy viloyatidagi Muruntov, Marjonbuloq, Qizilolma oltin konlaridan katta miqdorda oltin qazib olinadi va chetga eksport qilinadi. Oltinning asosiy importchisi va iste'molchisi Hindiston, Turkiya davlatlari hisoblanadi. Keyingi yillarda davlatimiz Janubiy-sharqiy Osiyoda


joylashgan Malayziya davlati bilan tashqi savdo aloqalarini ya'ni eksportni yo'lga qo'ygab bo'lib, asosan quritilgan mevalar, asal, mayiz, bodom kabi mahsulotlar eksport qilinmoqda. Davlatimizdagi bu hamkorlikni "Gold Prime Food" kompaniyasi amalga oshirmoqda. Eksportga yo'naltirilgan EIZlarning asosiy ahamiyati shundaki ular o'tish davri vositasi sifatida, mamlakatga jahon bozoriga kirish imkoniyatini yaratadi. O'zbekistonga eng yaqin bo'lgan jahon bozorlari Xitoy, Rossiya, Qozog'iston va Turkiya davlati hisoblanadi. Eksportni rivojlantirish uchun 3 ta asosiy element muhimdir. Bular quyidagilar:



2-rasm. Eksportni rivojlantirish uchun muhim elementlar

Eslatib o'tish kerakki, oldinroq 2024-yilda O'zbekistonda yalpi ichki mahsuloti 6,5 foizga oshib, 115 milliard dollarga yetgani, xorijiy investitsiya 1,6 barobarga o'sib, 34,9 milliard dollarni tashkil etgani, qiymati 10 milliard AQSH dollarlik 242 ta loyihalar ishga tushgani, eksport ilk bor 27 milliard AQSH dollariga statistika qo'mitasi tomonidan e'lon qilingan edi.

O'zbekiston bir qancha jahon davlatlari bilan katta miqdorda yuk tashish hajmiga ega va buni biz Sankey diagrammasi orqali ko'rishimiz mumkin.



3-rasm. O'zbekiston jahon davlatlari bilan yuk tashish hajmi mintaqalar doirasida

MUNOZARA. Erkin iqtisodiy zonalarning tashkil etilishi shu jumladan, eksportga yo'naltirilgan zonalari tashkil etish davlatimiz rivojlanishi uchun katta hissa qo'shadi. Shu bois davlatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar va strategiyalar ishlab chiqilmoqda. O'zi umuman olib qaraganda davlatimizning qaysi hududlarida eksportga yo'naltirilgan EIZlarni tashkil etish mumkin? Albatta mamlakatimiz hududi turli turli xil noz-ne'matlarga, qulay geografik o'ringa va mo'tadil iqlim sharoitiga ega. Davlatimiz sanoati va eksportning ko'rsatkichlarining ham katta qismi Toshkent iqtisodiy rayoni (Toshkent viloyati va Toshkent shahri) ga to'g'ri keladi. Buning o'ziga yarasha sabablari mavjud: Ushbu iqtisodiy iqtisodiy rayon 3 ta davlat bilan chegaraga ega ekanligi, transportning yaxshi yo'lga qo'yilganligi, infratuzilma, logistika va sanoat korxonalarining shu yerda jamlanganligidir. Davlatimizning boshqa hududlarida ham xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasidagi Qoraqalpoq-agro va Buxoro viloyatidagi Buxor-agro EIZlarning tashkil etilishi ham mamlakatning rivojlangan qishloq xo'jaligi

salohiyatini oshiribgina qolmasdan, investitsiyalarni o'ziga jalb qilib sifatli qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishga qodir. Shu kabi agro-erkin iqtisodiy zonalarining faqat eksportga yo'naltirilganini tashkil etish maqsadga muvofiq. Ushbu georafik hududlar Samarqand, Surxondaryo va Fargo'na viloyatlarini misol keltirish mumkin. Yana-da Fargo'na va Zarafshon iqtisodiy rayonida ham eksportga yo'naltirilgan EIZlarni tashkil etish va u ishlab chiqaradigan mahsulotning sifat darajasini oshirish jahon bozoridagi xaridorlarni o'ziga jalb qiladi.

XULOSA. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O'zbekiston iqtisodiy va tabiiy geografik jihatdan tabiiy resurslarga boy jannatmakon davlatlardan biridir. Aytish joyizki bu iqtisodiy va tabiiy resurslardan samarali foydalangan holda eksportga yo'naltirilgan EIZlarni tashkil etish mamlakatning barcha hududiy birliklarida amalga oshirsa bo'ladi. Avvalambor ushbu turdagi EIZlarni tashkil etish bilan birga aholining malakasini oshirish va ishlab chiqarilgan mahsulot sifatiga katta e'tibor qaratish kerak. Chunki xorijiy dunyo bozorlari asosiy talabni shunga qaratadi. Shuningdek, EIZlarni tashkil etishda zamonaviy texnologiyalarga asoslanish lozim. Bu esa ishlab chiqarilgan mahsulot va tovarlarning unumdorligini, samaradorligini va yuqori sifatini ta'minlaydi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kasimov I., Ashrafxanov S. O'zbekiston mahsulotlarini eksport qilish uchun yangi istiqbolli tashqi bozorlar. Tashqi iqtisodiy faoliyat masalalari bo'yicha loyiha, 2022-yil.
2. For a detailed discussion and definitions and terms used across countries, see Bost 2019.
3. Thomas Farole. Special Economic Zones in Africa. Comparing performance and learning from Global Experience, 2011.
4. Amanov A.K., Nazarov D.M. Экономика и социум. Zarafshon iqtisodiy rayonidagi erkin iqtisodiy zonalar № 1 (128) 2025.

5. Amanov A.K., Nazarov D.M. Экономика и социум. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonidagi maxsus iqtisodiy zona, kichik sanoat zonasi, texnopark va klasterlarning iqtisodiy geografik xususiyatlari, № 2 (117) 2024.
6. <https://qalampir.uz/uz/news/endi-fak-at-eksportga-ishlaydigan-erkin-ik-tisodiy-zonalar-tashkil-etil>